



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№3

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2024



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 3-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:
и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир
ўринбосари:**
и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:
и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:
и.ф.д. Ф.А.Сафаров
PhD, доцент И.М.Пардаева
катта ўқит. Ш.З.Ўразов

Техник муҳаррир:
и.ф.н., доц. А.Н.Холиқулов

Корректор:
PhD С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:
PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 мартаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:
140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти в.б., DSc

МУНДАРИЖА:

НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ	
Мурод Мухаммедович Мухаммедов, Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Амир Темурнинг одилона иқтисодий сиёсати – кудратли империянинг шаклланиш ва ривожлантириш омили	5
Дилфуза Олимбоевна Матёкубова Бизнес тузилмаларини инновацион ривожлантириш учун диверсификация стратегиясини танлаш истиқболларини баҳолаш тартиби ва усуллари	12
G‘ayrat Zuvaytovich Ubaydullaev Mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyalarini amalga oshirish inson kapitali samaradorligini oshiradi	16
Fotimaxon Ibragimovna Ergasheva, Madina Isoqjonovna Oxunjonova Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish masalalari	21
РАҚАМЛИ ВА ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТ	
Гулнора Мардиевна Шадиева Влияние инновационных процессов на экономическое развитие Республики Узбекистан: теоретические аспекты	26
Omonilla Saydaminovich Umarov, Abdulxay Xasanboyevich Xodjayev Iqtisodiy xavfsizlikini ta’minlashda ochiq ma’lumotlar sohasining ahamiyati	31
САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ	
Рузибой Нормухаматов, Уктам Абдуғани ўғли Абдурайимов Мева-сабзавотларда бўладиган нитратлардан келадиган хавфлар ва уларнинг олдини олиш йўллари	35
Гулнора Мардиевна Шадиева, Умида Равшановна Равшанова Теоретические аспекты занятости в сельском хозяйстве и их влияние на развитие экономики Республики Узбекистан	38
Сусанна Сейрановна Алиева Солнечная энергетика в тепличном хозяйстве	44
Zaxriddin Vasliddin o‘g‘li Usubjonov Namangan viloyatida qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatining rivojlanishi	49
Muxriddin Mo‘ydinjon o‘g‘li Turg‘unov Oziq-ovqat sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini boshqarish masalalari	55
Абдухолик Эгамович Тангиров Чўл-яйлов чорвачилиги хўжаликлари ва уларни бошқаришдаги айрим муаммолар	58
Mirodiljon Xasanboy o‘g‘li Xomidov O‘zbekiston Respublikasi avtomobilsozlik korxonalarida sanoat kooperatsiyasini tashkil etish va foydalanishning iqtisodiy ahamiyati	62
Xakim Toshimovich Buriyev Qurilish sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishning ilmiy asoslari	66
МЕХНАТ, БАНДЛИК ВА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ	
Саидахроп Саидахмедович Ғуломов, Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Ўзбекистонда таълим самарадорлигини ошириш ва камбағалликни қисқартириш бўйича айрим тавсиялар	72
Обид Мамаюнусович Пардаев Кўп ўлчовли камбағалликни аниқлашнинг янги индикаторлари ва уларнинг моҳияти	78

Muxriddin Mo‘yudinjon o‘g‘li Turg‘unov – Farg‘ona davlat universiteti, “Buxgaletiya hisobi va iqtisodiy tahlil” kafedrasida katta o‘qituvchisi (PhD)

OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI BOSHQARISH MASALALARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish va oziq-ovqat bozori raqobatbardoshligini oshirish yuzasidan tadqiqot amalga oshirilgan. Bunda oziq-ovqat sanoatining so‘nggi yillardagi statistik ko‘rsatkichlar tahlili amalga oshirilib rivojlanish tendensiyasi aniqlangan. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini baholashning ko‘rsatkichlar tizimi va integral baholash amalga oshirilgan.

Kalit so‘zlar: sanoat, boshqaruv, oziq-ovqat xavfsizligi, oziq-ovqat sanoati, raqobat, resurs tejamkorligi, innovatsiya.

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoat, jumladan oziq-ovqat sanoati korxonalarining muvaffaqiyatini ta‘minlash, faoliyatni baholash uchun zarur va yetarli omillarni aniqlash muhim uslubiy vazifalardir. Shu bilan birga zamonaviy tadqiqotlar asosan oziq-ovqat sanoati korxonalarini aglomeratsiyalari orasida aniqlash, ularni shakllantirish va faoliyatni o‘rganishga qaratilganligini ta‘kidlash lozim. Bunday tadqiqotlarning ahamiyati va dolzarbligi shuni ko‘rsatadiki, oziq-ovqat sanoati korxonalarining muvaffaqiyatli faoliyati, bu faoliyatni amalga oshirish shart-sharoitlarini aniqlash, faoliyatga baho berish masalalariga hanzugacha yetarlicha e‘tibor berilmagan.

Raqobat korxonasi rivojlanishining eng muhim jihatlardan biridir. Bozor raqobati tufayli korxonasi rahbariyati uni boshqarish, narxlar strategiyasini shakllantirish, tovar siyosati va mahsulotni taqsimlash siyosatiga yangi yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Beqaror siyosiy va iqtisodiy vaziyatda aholini sifatli va arzon oziq-ovqat bilan ta‘minlash vazifasi eng dolzarb masala hisoblanadi. Oziq-ovqat sanoatining barqaror rivojlanishi bilan asosiy muammo ko‘plab korxonalarining raqobatbardoshligi pastligi va ularning raqobat maydonidagi beqarorligidir. Oziq-ovqat sanoati korxonasini dinamik raqobat sharoitiga moslashtirish zarurati ishbilarmonlik muhiti yangi yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. I.Ansoff, P.Draker, O.N.Belenov, A.A.Anuchin va M.Porterlarning tadqiqotlarida korxonalar raqobatbardoshligi va raqobat ustunliklarini ta‘minlovchi ichki va tashqi ta‘sir etuvchi omillar hamda korxonalar faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish jarayonlari tadqiq qilingan .

Ye.B.Sheludko, H.A.Fashiyevlarning tadqiqotlarida oziq-ovqat sanoati korxonalarining raqobat salohiyatini boshqarish jarayonlari hududiy va tarmoq nuqtayi nazaridan o‘rganilgan.

R.A.Fatxutdinovning tadqiqotlarida esa korxonaning raqobatbardoshligini oshirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishning nazariy, uslubiy va amaliy masalalari tadqiq etilgan[1].


Tadqiqot metodologiyasi. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini boshqarish yuzasidan integral baholash usuli, raqobatbardoshlikni integral baholash, funksional va matritsaviy baholash kabi metodologiyalardan foydalanilgan[2].

Tahlil va natijalar. Raqobatbardoshlikni boshqarishda yagona universal usul mavjud emas. Korxonaning raqobatbardoshligini baholash uchun raqobat mavjud bozor muhitining zamonaviy sharoitida raqobatbardoshlikni faqat ko‘rsatkichlar orqali baholash mumkin emas.

Oziq-ovqat mahsulotlari bozor raqobati orqali faoliyatni boshqarish, amaldagi narx siyosatini yuritish, taqsimlash siyosatiga zamonaviy yondashuvlarni jalb qilishga majburlaydi. Oziq-ovqat sanoatining barqaror rivojlanishi bilan asosiy muammo ko‘plab korxonalarining raqobatbardoshligi pastligi va ularning raqobat maydonidagi beqarorligidir.

Ushbu tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, 2012-2022-yillar davomida YaIM miqdoriga mutanosib ravishda oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi ortib borgan. Sanoat ishlab chiqarish tizimida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 2012-yilga nisbatan 2022-yilda 7 barobarga ortgan.

Mahsulot sifati hamda uning raqobatbardoshligini boshqarish barcha korxonalarda bo‘lgani kabi oziq-ovqat sanoati korxonalarini faoliyatida ham baholashning bir qancha ko‘rinishlari va



1-rasm. Oziq-ovqat sanoati ulushi hamda o'sish sur'ati to'g'risida ma'lumot (foizda)¹

turlari mavjud. Ularga mahsulotning sifat va samaradorligini oshirib borish tizimini takomillashtirish kabi omillar kiradi. Har qanday tashkilotda bo'lgani kabi faoliyat va uning raqobatbardoshligini samarali boshqarishning umumiy qoliplashgan “universal” ko'rinishi yo'q. Oziq-ovqat mahsulotlari korxonasi faoliyat raqobatbardoshligini aniq nazorat qilish uchun ushbu turdagi bozorda raqobat borligi va u zamonaviy iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan tahlilini amalga oshirish imkonsizdir.

Oziq-ovqat sanoati korxonasi faoliyatini integral baholashda bozor holatiga, korxonaning iqtisodiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga, mahsulotlarning xususiyatlariga qarab, korxonaning raqobatbardoshligini baholashda tizimli yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida alohida olingan quyidagi tizimlar tomonidan korxonaning raqobatbardoshligini, ya'ni ishlab chiqarish, moliyaviy, marketing, pudrat faoliyati, sotishni tashkil etish, xodimlarni boshqarish, mahsulot raqobatbardoshligi, korxonaning innovatsion faoliyatini baholash kabi raqobatbardoshlikni tavsiflovchi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.

Tizimlilik ko'rsatkichi qisqa muddatda oziq-ovqat sanoati korxonalarining samaradorligini ko'rsatadi. Bu, birinchi navbatda, ishlab chiqarish jarayonida turli resurslardan foydalanishga nisbatan iqtisodiy samaradorligini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkichning iqtisodiy talqini uchun ishlab chiqarish samaradorligini belgilovchi qiymatlar eng maqbul hisoblanadi. Jarayonning tashkil etilishi va izchilligi oshgan sari turli xildagi resurslardan foydalanish yanada samarali bo'ladi (1-jadval).

1-jadval

Oziq-ovqat sanoati korxonasi faoliyatini baholash ko'rsatkichlari tizimi²

Ko'rsatkichlar	Baholash ko'rsatkichining uslubiy mazmuni	Ko'rsatkich mazmunini izohlovchi iqtisodiy qadriyatlar
Funksionallik	Qisqa muddatli ishlash, ya'ni mijozlar ehtiyojini qondirish	-sotilgan mahsulotlar hajmi; - korxonalar aylanmasi; - korxonalarining xo'jalik faoliyati turi bo'yicha aylanmasi
Tizimlilik	Korxonada xom ashyo ta'minotining mavjudligi va undan samarali foydalanish	- korxonaning har bir xodimi hisobga olingandagi umumiy hajmi; - xodimlar soniga nisbatan mahsulot
Faollik	SWOT tahlili asosida omillarni hisobga olish	-innovatsion faoliyatning umumiy miqdori; -raqamli texnologiyalar soni va mavjudligi.

Raqobatbardoshlikni oshirishning eng asosiy mezonlari ham mahsulot tannarxini kamay-

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi www.stat.uz rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

tirishdan iborat. Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bosqichida korxonada ma'muriyati malakali ishchi kuchi, sifatli xom ashyo va tejamkor energiya sarflovchi texnika va texnologiyalardan foydalanishi raqobat kurashida muhim hisoblanadi .

2-jadval

Oziq-ovqat sanoati korxonalari raqobatbardoshligining integral ko'rsatkichini baholash natijalari

Shkala qiymati, %	Baholash natijalari
0-20	Raqobatbardoshlik darajasi past va idealga javob bermaydi, korxonada butun boshqaruv siyosatini tubdan o'zgartirishni va korxonaning asosiy biznesini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni joriy etishni talab qiladi. Korxonada resurslar va tashkilot jihatidan qoniqarsiz raqobatbardoshlik darajasiga ega.
20, 1-40	Raqobatbardoshlikning yaxshi darajasiga erishish uchun korxonada o'zining aksariyat elementlariga o'zgartirishlar kiritishi kerak. Raqobatbardoshlikni oshirish siyosati menejmentning umumiy samaradorligini oshirish asosida korxonada rahbariyati tomonidan sozlanishi kerak.
40, 1-60	Oziq-ovqat sanoati korxonasining raqobatbardoshlik darajasi ma'lum darajada yaxshi darajaga mos keladi va ma'lum quyi tizimlarda oz sonli elementlarni sozlashni talab qiladi. Bu raqobatbardoshlikni oshirish strategiyasini joriy etish, bu korxonani yanada rivojlantirishga yordam beradi.
60, 1-100	Oziq-ovqat sanoati korxonasi raqobatbardoshligi darajasi ideal mos keladi, boshqaruv siyosatida har qanday o'zgarishlar qilish talab qilinmaydi, ish faoliyatini yaxshilash uchun bir strategiya amalga oshirish uchun hech qanday ehtiyoj bor.

Korxonalarining raqobatbardoshligini baholashning olingan natijalarini tahlil qilsak, oziq-ovqat sanoati korxonalarining raqobatbardoshligi yuqori emasligini ko'ramiz bitiruv shkalasi qoniqarli va nisbatan yaxshi darajaga mos keladi.

Ko'rinib turibdiki, ko'rsatkich darajasi yildan-yilga o'zgarib turadi, bu esa korxonalarining bozordagi raqobatbardosh pozitsiyalarini saqlab qololmasligini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar. Shuni ta'kidlash mumkinki, har qanday tizimning boshqarilishi uchun eng muhim shart uning barqarorligi bo'lib, unda ma'lum bir qonun va qaror bilan ishlaydigan tizimning ta'minlanganligidir. Oziq-ovqat sanoat korxonalari faoliyatida raqobatbardoshlikni boshqarish ham narx darajasi muvozanatini barqarorligini ta'minlash va oziq-ovqat sanoat korxonalarining uzluksiz ishlashini ta'minlashga erishish mumkin bo'ladi. Natijada esa aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan doimiy talabi qondiriladi.

Yuqoridagi xulosadan kelib chiqib oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatida raqobatbardoshlikni boshqarish yuzasidan quyidagi takliflar tavsiya etiladi:

- O'zbekistonda oziq-ovqat sanoat tarmog'ida raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun tayyor mahsulotni asosiy iste'mol bozorlariga yetkazib berish hamda butunlay ishlab chiqarilgan mahsulotlarni marketingigacha bo'lgan tashkiliy tuzilmalarni tashkil etadigan alohida majmua ko'rinishiga keltirildi.

- Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyati raqobatbardoshligini boshqarishda so'nggi innovatsion yangiliklar, shuningdek, ularni amaliyotda tatbiq qilish, "xom ashyoni –qayta ishlash – tayyor mahsulot" zanjirida ishlab chiqarish tizimini integratsiyasini amalga oshirish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

- Oziq-ovqat sanoati boshqa tarmoqlar ichida o'zining aylanma mablag'ni ko'proq talab qilishi hamda moliyaviy faoliyat pirovardidan tashqari faoliyatni zamonaviy moddiy-texnik bazasi va malakali kadrlar imkoniyatidan maksimal darajada foydalana oluvchi oziq-ovqat sanoati korxonalari iqtisodiy faoliyatining integral ko'rsatkichidan foydalanish tavsiya etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Беленов, О.Н. Конкуренентоспособность стран и регионов / О.Н. Беленов, А.А. Анучин. – М.: КНОРУС, 2015. – 148 с.
2. Шелудько, Е.Б. Конкуренентоспособность предприятия: сущность, факторы и принципы /

- Е.Б. Шелудько // Научно-методический электронный журнал «Концепт». 2016. – № 56.
3. Фасхиев, Х.А. Как оценить и управлять качеством и конкурентоспособностью товаров и услуг / Х.А. Фасхиев // Маркетинг в России и за рубежом. – 2014. – № 3. – С. 88-102.
4. Фатхутдинов, Р.А. Управление конкурентоспособностью организации / Р.А. Фатхутдинов. – М.: Изд-во «Эксмо», 2014. – 545 с
5. Turgunov, M. (2021). STATE AND PROSPECTS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN IN INTERNATIONAL RATINGS OF INNOVATION DEVELOPMENT. Theoretical & Applied Science, (7), 37-42.
6. Turgunov, M. (2021). Issues of innovative approach and financing of innovative projects in rapid economic development. Ekonomika i sotsium, (7), 151-159.
7. Тургунов М. М. (2021). Совершенствование механизмов управления предприятиями пищевой промышленности. Ин НАУКА СЕГОДНЯ: ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ (пп. 25-26).
8. Muallif hisob-kitoblari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat agentligi ma’lumotlari.

М.Тургунов	M.Turgunov
Вопросы управления конкурентоспособностью предприятий пищевой промышленности	Issues of managing the competitiveness of food industry enterprises
<p>Аннотация. В данной статье проведено исследование по развитию пищевой промышленности в нашей стране и повышению конкурентоспособности продовольственного рынка. При этом определена тенденция развития пищевой промышленности за последние годы путем анализа статистических показателей. Реализована система показателей оценки конкурентоспособности предприятий пищевой промышленности и комплексная оценка.</p> <p>Ключевые слова: промышленность, менеджмент, безопасность пищевых продуктов, пищевая промышленность, конкуренция, ресурсосбережение, инновации.</p>	<p>Abstract. In this article, a study was carried out on the development of the food industry and increasing the competitiveness of the food market in our country. In this, the analysis of the statistical indicators of the food industry in recent years was carried out and the development trend was determined. A system of indicators for evaluating the competitiveness of food industry enterprises and an integrated assessment have been implemented.</p> <p>Keywords: industry, management, food security, food industry, competition, resource economy, innovation.</p>

УЎК 636.933.2.338.1

Абдухолик Эгамович Тангиров –Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти доценти, и.ф.н.

ЧЎЛ-ЯЙЛОВ ЧОРВАЧИЛИГИ ХЎЖАЛИКЛАРИ ВА УЛАРНИ БОШҚАРИШДАГИ АЙРИМ МУАММОЛАР

<p>Аннотация: мақолада чўл-яйлов чорвачилиги хўжаликларни бошқариш муаммолари, хусусий мулкка асосланган бошқарувнинг самарадорлиги ўрганилган ва таҳлил қилинган ҳамда такомиллаштириш бўйича таклифлар ишлаб чиқилган.</p> <p>Калит сўзлар: мулк, бозор иқтисодиёти, бозор механизми, бошқариш, хусусийлаштириш, инфратузилма, қайта ишлаш, тайёр маҳсулот, таннарх, фойда, рентабеллик, яйлов, агрофитоценоз.</p>

Кириш. Республика чорвачилигининг муҳим соҳаларидан бири қорақўлчилик ҳисобланади. Мамлакатимиз ер ресурсларининг деярли ярми яйловлар ҳиссасига тўғри келади. Мамлакатимиз яйлов ресурсларидан унумли фойдаланишнинг ягона йўли яйлов чорвачилигини ривожлантириш, хусусан қорақўлчилик, туячилик, эчкичилик ва улардан олинадиган маҳсулотларни қайта ишлаб тайёр харидоргир товар сифатида сотишни йўлга қўйишдир.

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

12.09.2024 йилда теришга берилди. 27.09.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0110А/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.